



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

QURBANIYAZOVA ZULQUMAR SALI QIZI

Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti.
zulxumarqurbaniyazova6@gmail.com +998935065446

O'ZBEK XALQ ERTAKLARINI O'QITISHDA "BOOK CREATOR" DASTURIDAN FOYDALANISH ("Zumrad va Qimmat" ertagi misolida)

Annotatsiya. Maqolada muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ertak janrini o'qitishda ta'lim resurslaridan foydalanish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Shuningdek, o'quvchilarga ertak janrini o'rgatishda virtual manbalarning ahamiyati hamda ular asosida xorijiy manba va tajribalaridan foydalanish orqali yoshlar tafakkurini shakllantirish masalalari ilmiy-metodik tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: folklor, ertak, axborot texnologiyalari, xorijiy tajriba, book creator.

ПРОГРАММЫ "BOOK CREATOR" ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК (на примере сказки "Зумрад и Киммат")

КУРБАНИЯЗОВА ЗУЛКУМАР САЛИ КИЗИ

Нукусский государственный педагогический институт,
магистр узбекского языка и литературы.
zulhumarqurbaniyazova6@gmail.com +998935065446

Аннотация. В статье даны рекомендации по использованию образовательных ресурсов при обучении жанру сказки, имеющему важное воспитательное значение. Также научно и методически проанализировано значение виртуальных ресурсов в обучении школьников жанру сказки и вопросы

формирования мышления молодежи посредством использования зарубежных источников и опыта, основанного на них.

Ключевые слова: фольклор, сказка, информационные технологии, зарубежный опыт, book creator.

“BOOK CREATOR” PROGRAM IN TEACHING UZBEK FOLK TALES (using the example of the fairy tale “Zumrad and Kimmat”)

KURBANIYAZOVA ZULKUMAR SALI KIZI

Nukus State Pedagogical Institute,
Master of Uzbek language and literature.
zulhumarqurbaniyazova6@gmail.com +998935065446

Annotation. The article provides recommendations for the use of educational resources when teaching the fairy tale genre, which has important educational significance. The importance of virtual resources in teaching schoolchildren the fairy tale genre and the issues of shaping the thinking of young people through the use of foreign sources and experience based on them are also scientifically and methodically analyzed.

Key words: folklore, fairy tale, information technologies, foreign experience, book creator.

Kirish (Introduction). Har bir jamiyat uchun yuksak bilim va tajribaga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda pedagoglar uning imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etishi dolzarb vazifalardandir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ilm-ma'rifat va texnologiyalar rivoji xususida alohida ta'kidlab: “Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya. Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir! Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish, uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart” [5.] – degan edi. Shu ma'noda, bugungi globallashuv davrida barchamiz ta'lim-tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalardan unumli foydalangan holda uni ta'lim jarayoniga tatbiq etishimiz lozim.

Mavzu yuzasidan muayyan obyektlarda tashkil etilgan tajriba-sinovlar, kuzatilgan darslardan kelib chiqib aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ikoniyati yetarli

darajada emas. O'qituvchi va o'quvchilar folklor janri namunalarini o'rganish uchun yaratilgan elektron resurslarga murojaat qilishda bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Vaholanki, ayni maqsadga yo'naltirilgan audio, video, mediaresurslar mavjud bo'lib, afsuski, o'quvchilar uchun bir vaqtning o'zida bir nechta amallarni o'zida jamlay oladigan dasturlar bilan ishlash malakasi yaxshi emas.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, aksariyat hollarda pedagoglar yangi avlod darsligida berilgan audiomatn va skanerlardan foydalanish bilan cheklanib qoladilar. Bugungi avlod IT olami, internet asrida yashab, ulg'aymoqda. Zero, axborot texnologiyalaridan maqsadli foydalanish o'quvchilar turmushida muhimki, bugungi kunda ular uchun zamonaviy, interaktiv va kreativ axborot texnologiyalarini tayyorlash va ta'lim jarayoniga tatbiq etishga ehtiyoj seziladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Elektron ta'lim resurslarini yaratish va ta'lim jarayonida qo'llash yuzasidan mavjud dasturlardan biri **"Book creator"**dir. [<https://app.bookcreator.com>] "Book creator" dasturidan foydalanishni bayon etishdan oldin, elektron axborot ta'lim resurslariga nimalar kirishini tahlil qilamiz. Elektron axborot ta'lim resurslariga fan bo'yicha yaratilgan elektron darslik, o'quv qo'llanma, metodik ko'rsatmalar, multimediali vositalar, ma'lumotnomalar, lug'atlar, gipermatnlar, elektron testlar va topshiriqlar hamda shunga o'xshash o'quvchining mustaqil bilim olishini ta'minlovchi, o'rganishga qiziqish uyg'otuvchi resurslar kiradi.

Odatda, taqdimotni o'tkazishga tayyorlanish jarayonida ko'pchilik holatlarda Microsoft PowerPoint dasturi ishlatiladi. Ammo, bunday taqdimotlar faqat mazkur "ppt, pptx" formatida bo'ladi. Bugungi kunda taqdimot fayllarini internet tarmog'ining o'zida onlayn tarzda ko'rish va foydalanish uchun flash (swf) formati yoki HTML asosida yaratilishi qator qulayliklarni vujudga keltiradi. Hozirgi kunda PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan "Book creator" dasturiga kiruvchi bir qism sifatida foydalanish mumkin. "Book creator" – bu raqamli vosita bo'lib, o'qituvchilarga multimediali kitoblarni yaratish va uni o'qish imkonini beradi. Bu hikoya yaratish usuli va multimedia dizayni orqali o'quvchilarning faolligini oshirish uchun ideal vositadir. O'qituvchilar o'z kitoblarini yaratish bilan birga o'z kontentini yaratishlari ham mumkin (o'z-o'zidan yaratilgan videolavhalar, audio fayllar va rasmlarni, chizish yoki yuklash orqali) yoki Internetdan onlayn multimedia resurslarini boshqarishlari mumkin. "Book Creator"ning afzallik tomoni shundaki, o'qituvchilar uchun oldindan loyihalashtirilgan elektron kitoblar va resurslar kutubxonasini taqdim etadi.

Qo'yilgan muammo yuzasidan biz o'z kuzatish va tajribamizdan kelib chiqqan holda **"Book creator"** dasturiy ta'minotidan adabiyot darslarida ertak janrini o'qitishda foydalanish, **"iSpring"** dasturiy ta'minoti orqali tuzilgan testlarni ilovalarda

ulashish, uning afzalliklari hamda undan kutiladigan natijalar haqida ma'lumotlarni taqdim qilamiz.


Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). “Book creator” dasturining quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- taqdimot fayllarini bir necha (pdf, exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash;
- taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish;
- taqdimot kontentini muhofaza qilish: login-parol yordamida ko'ra olish, taqdimotga “himoya belgi”si qo'yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan toifa vakillari ko'ra olishlarini ta'minlash;
- video joylash va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;
- elektron kitoblar yaratish va undan foydalanuvchilar haqidagi statistik ma'lumotlarni muntazam kuzatib borish;
- masofaviy o'qitish tizimida foydalanish;
- YouTube tarmog'iga joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish;
- elektron kitobga kiritilgan matnlarni sun'iy intellekt yordamida audiomatnga aylantirish;
- elektron kitoblarni internet tarmog'iga bepul yoki to'lovli qilib joylashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Adabiyot fanidan darslikka kiritilgan xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitishda turli dasturiy ta'minotlar, animatsiyalar, noan'anaviy test savollari, audio va video materiallarni har xil ta'lim kontentlaridan foydalanib tayyorlash davr talabi bo'lib qolmoqda. Yuqoridagi dasturiy ta'minotlarni tayyorlashni o'qituvchilar, avvalo, oliy o'quv yurtlarida o'rgangan bo'lishi, shuningdek, “O'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari”da mahoratlarini yanada oshirgan bo'lishlari muhim hisoblanadi.




“Book creator” dasturini nafaqat kompyuterlarga, balki mobil aloqa vositalariga ham tez va oson yuklab olishimiz mumkin. Dastur o'rnatib bo'lingach, ilovani ochishimiz bilan talabalar uchun alohida, o'qituvchilar uchun alohida va maktab uchun alohida platforma ochiladi. Biz dasturga qaysi toifa vakili sifatida kirishimizni aniqlab olgach “Login” deb nomlangan tugmachani bosib, ro'yxatdan o'tamiz.

Agar siz o'quvchi sifatida ilovadan foydalanayotgan bo'lsangiz, 1-rasmda ko'rsatilgan yozuv, ya'ni "Enter the code from your teacher" (o'qituvchingiz tomonidan berilgan parolni kiriting) oynasi namoyon bo'ladi. Bunda obunachi faqat o'qituvchi tomonidan tayyorlangan kitoblarni ko'rishi va undan foydalanishi mumkin.




Ilovaga o'qituvchi sifatida kirilsa, 2-rasmdagi yozuvlar paydo bo'ladi. "Which grades do you teach?" ya'ni qaysi sinflarni o'qitish uchun foydalanmoqchi bo'lsak, o'sha sinflarni belgilab olishimiz zarur. Tanlov bo'limida faqat maktab o'quvchilari uchun emas, maktabgacha ta'lim va oliy ta'lim muassasalari uchun ham elektron kitoblar yaratishimiz mumkinligi aks ettirilgan. Qaysi darajadagilar uchun kitob yaratishimizni tanlaganimizdan keyin "next" (keyingi) tugmasini bosib, keyingi bosqichga o'tiladi.

Ilovaning navbatdagi bosqichida bizdan "Which subjects do you teach?" (qaysi fanlarni o'qitasiz?) so'raladi. Bunda biz qaysi fandan elektron kitob yaratmoqchi ekanligimizni belgilashimiz kerak. Keyin "next" (keyingi) tugmasini bosib, keyingi bosqichga o'tiladi (3-rasm).



Dasturning keyingi bosqichida esa, "What would you like to call your library?" (siz kitoblar jamlanmasini qanday nomlamog'chisiz?) savoli beriladi. Masalan, biz adabiyot o'qituvchisi sifatida bu bo'limni "Xalq ertaklarini o'qitish" deb nomlashimiz mumkin (4-rasm).

Shundan keyin ishchi oynaning o'ng tomonidagi "new book" (yangi kitob) tugmasini bosib, elektron kitobni yaratishga kirishamiz (5-rasm).



5-rasm. Dasturdan kitob yaratish tugmasini tanlaganimizdan keyin, kitobning shakli (katta-kichikligi) qanday bo'lishi kerakligini tanlab olishimiz zarur. Undan so'ng ishchi oynaning o'ng tomonidagi "+" tugmasini bosamiz va quyidagi imkoniyatlar paydo bo'ladi:

- Tools (asboblari)

Images (rasm): rasmlarni joylashtirish;

Pen (qalam): har xil shakllarni chizish;

Text (matn): nusxa sifatida olingan matnlarni kiritish, yoki dasturning o'zida matn yozish imkonini;

Record (ovoz yozib olish): o'z ovozimizni kitobga kiritish uchun yozib olish imkoniyati;

- Media (media)

Templates (qo'shimcha shakllar): turli xil shakldagi boshqotirma va shunga o'xshash topshiriq turlarini kiritish;


Shapes (har xil figuralar): kitob bezaklari uchun turfa shakllar qo'yish;

Icons (emojilar): ikonkalar joylashtirish;

Files (fayllar): boshqa dasturda yaratilgan fayllarni kitobning ichiga kiritish;

- Apps (ilovalar)

Animated Emojis, Bitmoji, Canva, Giphy, Google Drive, Google Maps kabi dasturlardan foydalanish.



6-rasm. Yuqorida keltirilgan imkoniyatlardan maqsadli foydalangan holda, faqat xalq ertaklarini interaktiv o'qitib qolmasdan, balki har qanday sohada ham ishlata olamiz. Bu dasturda tayyorlangan elektron kitoblarni mutolaa qilish jarayonida kitobxon zamonaviy texnologiya vositalarini ishlatibgina qolmay,

o'zining qimmatli vaqtini tejaydi va bir vaqtning o'zida bir nechta funksiyalarni birgalikda bajara oladi. Demak, biz ushbu dastur yutuqlaridan unumli foydalangan holda o'zbek xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan "Zumrad va Qimmat" ertagining elektron kitobini yaratdik. Elektron kitobimiz quyidagilarni o'zida jamlagan:

1. O'quvchilar ertak matnini shunchaki o'qib ketmasdan, voqealarga mos tarzda tanlangan rasmlar bilan tanishib boradi.

2. Ertak matni asosida tayyorlangan audiomatn bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. Kitob oxirida "Zumrad va Qimmat" ertagi multfilmini tomosha qilish imkoniyati mavjud.

4. O'quvchilar ertak bilan nafaqat o'zbek tilida, balki qoraqalpoq va ingliz tillarida ham tanishishlari ham mumkin.

5. Yakunlovchi qismda ertak asosida "iSpring" dasturida tayyorlangan noan'anaviy testlarni bajaradilar.

Elektron resursni internet tarmog'iga joylashimiz yoki online foydalanish imkonini yaratishimiz, android qurilmalarga moslash orqali bir qator qulayliklarga ega bo'lish mumkin. Quyidagi ulashish tugmasini bosib yoki skanerlash orqali "Zumrad va Qimmat" ertagi asosida tayyorlagan elektron kitob bilan batafsil tanishib chiqish imkoni mavjud.



<https://read.bookcreator.com/2K7MRoIcQsemc0xRYEFVF97VAFy1/6sqcYUwARdydyp5j3uYBTw>

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bu dastur orqali o'qitishda foydalanish an'anaviy darslarga nisbatan bir xillikka yo'l qo'ymaydi va o'quvchilarga birmuncha qiziqarli tarzda kerakli bilimlarni bera oladi. Undan tashqari bu interaktiv qurilma orqali noodatiy testlarni bajarish, rasm, ovoz va videolavhalarni kuzatish imkoniyati mavjudligi ularni yanada katta qiziqish bilan o'qib, o'rganishga chorlaydi. Odatiy dars o'tish usullaridan farqli ravishda bu dasturiy ta'minotdan foydalanish, o'quvchilarga faqat ertakning bir tildagi variant bilan tanishib qolmasdan, qardosh va xorijiy tildagi nusxalarini ham tanishtiradi. Ertakning asl matni va filmdagi nusxasini bir-biridan farqlab, ularning o'xshash yoki o'zgartirilgan joylarini ham topishlariga imkon yaratib, ularning dunyoqarashini yanada kengaytirishga yaqindan yordam beradi. Dasturiy ta'minotni mobil aloqda vositalari, kompyuter yoki internet tarmoqlariga joylashtirish imkoni mavjudligi hozirgi zamonaviy ta'lim talablariga ham to'liq javob bera oladi. Natijada, o'qituvchi va o'quvchilarda quyidagi malakalar shakllanadi:

- o'qituvchining IT sohasida malakasi va ijodkorligi rivojlanadi;
- o'qituvchining ilmiy salohiyati va ilmiy darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- o'quvchilar bilish faoliyatining rivojlanishi va takomillashuvida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi, ta'limning samaradorligini oshirishga yordam beradi;
- o'quvchilarning fang va o'qishga bo'lgan qiziqishi, intilishi, ma'naviy-ma'rifiy tafakkuri, estetik did shakllanishi, fikrlash doirasining kengayishi, tashabbuskorlik va ijodkorlik sifatlarining oshishiga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash kerakki, “Book creator” dasturining o‘zida ko‘plab imkoniyatlarni jamlagan, barcha dasturdagi mahsulotlarni bemaolol kitob shakliga keltirib joylashimiz mumkin. Bir birgina “Zumrad va Qimmat” ertagi misolida bu dasturning imkoniyati bilan sizni qisman tanishtirdik. Bugungi kunda IT sohasida minglab ta’lim uchun samarali bo‘lgan dasturiy ta’minotlar mavjud. Biz malakali pedagog kadrlar sifatida ta’lim sifatini yanada oshirish, mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishi uchun yetuk mutaxassislarni raqobatbardosh qilib tayyorlash barobarida IT texnologiyalarini mukammal o‘rganib, uni ta’lim tizimiga tezlik bilan olib kirib, amalda qo‘llashimiz muhim bir vazifadir. Chunki, rivojlangan xorijiy davlatlar ta’lim tizimining tajribalarini puxta o‘zlashtirmasdan, zamonaviy axborot texnologiya vositalarini o‘qitish jarayonida foydalanmasdan, pedagog kadrlarimizni zamonaviy dasturiy ta’minotlar bilan qurollantirmasdan biz kelajak avlodlarimizning ta’lim sifatining yuqorilashiga erisha olmaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni.
2. Avvalboyeva I. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: .Yurist-media markazi, 2017.
3. <https://app.bookcreator.com>
4. <https://www.ispringsolutions.com>
5. <https://president.uz/oz/3315>